

O'QUVCHILARGA IZONIT-IPLAR GRAFIKASI USULIDA TASVIRLAR TAYYORLASHNI O'RGATISH.

NamDPI. PhD. Sh.Xudayqulov. Talaba Dolimova Aziza Otabek qizi


Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktab o'quvchilariga Izonit-iplar grafikasi tarixi va ular haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'quvchilarga texnologiya dars mashg'ulotlarida, maktabdan va darsdan tashqari mashg'ulotlarda Izonit-iplar grafikasi usuli yordamida turli naqsh elementlaridan qiziqarli, chiroyli dekorativ pannolar, naturmortlar, tabiat manzaralari, kitob uchun xatcho'p, kitob g'illoflari, qutichalar bezagi, sovg'a uchun turli esdalik kompozitsiyalar yaratish uchun ko'rsatma vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: Izonit-iplar grafikasi, rangli iplar, igna, asos, qaychi, bigiz, to'g'nag'ichlar, kompozitsiya, tasvir, Ovalsimon, spiralsimon, to'rtburchak, doira, chok, texnika, nuqta, kashta tikish, qog'ozlar.

Bugun yoshlarni barkamol avlod bo'lib yetishishda, puxta bilimlar egallash o'zlarini iqtidorlarini to'la namoyon qilish, barcha qobilyatlarni yuzaga chiqarish hamda jamiyatda muhim bir kasb-hunarni egallashlari uchun barcha fanlar qatori "Texnologiya" faninig o'rini katta axamyatga egadir.

Fan mashg'ulotlarida mustaqil ijodiy ishlar amalga oshirish bilan birga turli xil materiallardan chiroyli buyumlar, tikish usullari bilan xar-xil kashtalar, zardo'zlik asosida buyumlar, izonit-ip grafikasi asosida chiroyli dekorativ pannolar, naturmortlar tikish texnologiyasi bilan ko'nikma va malakalaringizni oshirib boriladi.


Ip grafikasi (turlari: ip o'tkazish, ip tasviri, ip dizayni) yoki string art (inglizcha string art - "iplar san'ati" dan) - bu karton yoki boshqa mustahkam asosda iplar bilan tasvirni olish usuli. Ip grafikasi ba'zan izografiya yoki karton kashtado'zlik deb ham ataladi. Ba'zan asos sifatida baxmal (baxmal qog'oz) yoki qalin qog'oz ham ishlatiladi. Oddiy iplar, jun va rangli ipak iplardan ham foydalanishingiz mumkin. Izonit-iplar grafikasi bu qattiq buyumga iplar grafikasi yordamida biron-bir tasvirni yaratishga aytiladi. Izonit XVII asrda Angilyalik to'quvchilar tomonidan yaratilgan. Dastlab ular yog'ochning ustki qismiga mixlar qoqib, mixlarga iplarni tortib, turli grafik naqshlarni hosil qilishgan(1-rasm). Keyinchalik takomillashtirilib kartonlar, disklar ustiga tasvirlar tushirilgan.




1-rasm. Mixlarga iplarni tortib
hosil qilish



Izonit juda qiziqarli va ajoyib usul bo'lib, kashtaga yoki to'qish san'atiga o'xshamaydi. Chunki bu juda ham sodda va dizayni jihatidan ham boshqa tikish uslublaridan ajralib turadi. Izonit texnologiyasi qimmatbaho materiallarni talab qilmaydi, faqat rangli yorqin iplar va mustahkam asos sifatida xizmat qiladigan materiallardan foydalaniladi. Izonit usuli bilan turli xildagi tasvirlarni iplar yordamida hosil qilishdan iborat bo'ladi. Hosil qilingan tasvirlar juda ham chiroyli manzarani berdi.



2-rasm. Burchak shaklini tikish



3-rasm. Spiral shaklini to'ldirish

Izonit usulida tikish texnikasida burchak, yoysimon, spiral shakli, bargsimon, va aylana shaklli usullaridan foydalanib naqshlar tikiladi (2 va 3-rasmlar). Hamma shakl har xil gullarni va naqshlarni beradi. Hamma tikish usullaridan foydalib ham bir ajoyib manzara hosil qilish mumkin. Izonit usulida tikish uchun asosan rangli iplar, igna, asos, qaychi kerak bo'ladi. Rangli iplar mulina, iris, g'altakli kabi iplar ko'p ishlatiladi. Igna esa ozgina ingichkarog' bo'lgani yaxshi. Izonitning asosi esa karton, qog'oz, disk, plastinka kabi asoslardan foydalanamiz. Qaychini esa iplarni tez va oson kesishimiz uchun ishlatamiz. Asoslarni teshish uchun bigiz yoki to'g'nag'ichlardan ishlatamiz. Scotch yoki yelimlardan ham foydalanamiz, chunki, asosning orqa tomonidan iplari mustahkam bo'lishi uchun.


Izonit usuli texnikasini o'rganish uchun burchak, doira va kamon shakllarini o'rganishning o'zi kifoya. Chunki ko'p shakllar manashu usullar yordamida tayyorlanadi.

Izonit tayyorlashimiz uchun birinchi bo'lib karton yoki qog'ozga burchak shakli chiziladi, burchakning har bir tomoni teng qismlarga bo'lingan va burchak yonidagi segmentlar soni teng bo'lishi kerak, aks holda burchak chiqmay qolishi mumkin. Ip karton qog'ozning ichki qismidan birinchi nuqtadan boshlab kiritiladi va oxirgi nuqtaga borib to'xtaydi (1-jadval).


Burchak shaklini xosil qilish jaryoni ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz.

1-jadval






Doirani to'ldirish usuli ham burchakni to'ldirish qoidasiga muvofiq amalga oshiriladi. Birinchidan, baravar teng miqdordagi teng qismlarga bo'linadi. So'ng aylananing har qanday oqimi ixtiyoriy tanlanadi (4 va 5-rasmlar).





4-rasm. Doirani to'ldirish usuli



Turli shakllarni to'ldirish usuli; geometrik shakllarni to'ldirish texnologiyasini yaxshiroq tushunish uchun "Bantik" va "Narvon" shaklini to'ldirishni o'rganib chiqish kerak bo'ladi.

Kompozitsiyalarni yaratish uchun faqat burchaklar va doiralar yetarli emas, shuning uchun eng ko'p uchraydigan shakllarni tikishni ham o'rganish kerak bo'ladi (6-rasm). Ovalsimon, spiralsimon, to'rtburchak va boshqa shakllar doirani to'ldirish qoidalari bilan bir xil tartibda amalga oshiriladi. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan mahsulotlar uchun doiralar va ovallardan foydalaniladi.





6-rasm. Tuli xildagi sovg'a uchun giloflar hamda panolardan na'munalar

Dekorativ ta'sirni kuchaytirish maqsadida atrofni yoki yopiq konturni bir necha bosqichda, har bir chok uchun ipni turli xil uzunliklarda o'tkazish mumkin. Spiralsimon usuli; bu usulda ish jarayoni burilish nuqtasidan boshlanadi. Tikish uzunligi 1-2-dan 3-4-nuqtalar orasida tanlanadi. Spiral so'nggi nuqttagacha har doim bir yo'nalishda harakat qilish bilan to'ldirilib boriladi.

Ovalsimon usul; ish jarayoni ovalsimon shaklning birinchi nuqtasidan boshlanib, yana o'sha yeridan tugallanadi. Ikki nuqta orasidagi masofani bir xil taminlash lozim, bu ko'proq bargning pastki qismiga tegishli hisoblanadi. Bargdan tashqari, kurtaklar, gullarni to'ldirish zarur bo'lganda ucburchaklarni to'ldirish usulidan ham foydalanish mumkin.

Shunday qilib izonit-ip grafikasini har xil usullaridan foydalanish bilan o'quvchilarni ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga erishamiz. O'quvchilarni texnologiya mashg'ulotlarida shu usullardan foydalanib turli naqsh elementlaridan qiziqarli, chiroyli dekorativ pannolar, naturmortlar, tabiat manzaralari, kitob uchun xatcho'p, kitob g'illoflari, qutichalar bezagi, sovg'a uchun esdalik kompozitsiyalar yaratish imkonini beradi. Tikish texnikasi murakkab tuyulsada aslida har bir bosqichning amalga oshirilishi judda oddiy, tikish jarayonida o'quvchilar diqqatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G.A. Branitskogo «Kartiny iz tsvetnykh nitok i gvozdey» 1995 godu.
2. Nagibinoy M.I. «CHudesa iz tkani svoimi rukami» (Yaroslavl', «Akademiya razvitiya», 1997 g.)
3. G. A. Branitskiy, Jivye kartiny, Baro-Press, 2003.
4. G. A. Branitskiy, Nauka i jizn', 2004, № 12, 116.
5. U.Yu.Talipova."Izonit yoki iplar grafikasi" nomli dars ishlanmasi 2022y.
. O'.O.Tohirov va boshqalar. "Texnologiya" umumiy o'rta ta'lim maktabi 8-sinf uchun darslik.2020y.

